


NAVOIY VILOYATIDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI




2019 yil 1 yanvar holatiga Navoiy viloyatida 269 ta ambulatoriya poliklinika muassasalari mavjud bo'lib, ularning 51 foizini (137 ta) kichik tibbiyot korxonalarini va mikrofirmalar tashkil etadi. Ularning soni 2017 yilga (246 ta) nisbatan 1,1 martaga ko'paydi. Shifoxona muassasalari soni 1,1 martaga ko'paydi. 2017 yilda 29 ta shifoxona muassasalari faoliyat yuritgan bo'lsa, 2018 yilda ularning soni 31 tani tashkil etib, ulardan 16,1 foizi (5 ta) kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan iborat bo'ldi.

Davolash profilaktika muassasalari soni (2015-2018 yillar)



Hududlar kesimida davolash profilaktika muassasalari soni (2018 y.)



Shifoxona muassasalarinig asosiy ko'rsatkichlari (2017-2018 yillar)

	2017 y.	2018 y.
Shifoxona muassasalari soni, birlik	29	31
O'rinlar soni, ming o'rin	4,0	4,0
10000 aholiga shifoxona o'rinlar soni	42	41
Davolangan bemorlar soni, ming kishi	191,3	200,1
Bemorlar o'tkazgan o'rin kunlar soni, ming	1236,8	1265,6



2017 yilga nisbatan ambulatoriya poliklinika muassasalari quvvati 2018 yilda 3 foizga ko'paydi. 2017 yilda ambulatoriya poliklinika muassasalari bir smenada 14,8 ming kishini qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2018 yilga kelib 15,2 ming kishiga etdi.

Ambulatoriya-poliklinika muassasalarining asosiy ko'satkichlari (2017-2018 yillar)


	2017 y.	2018 y.
Ambulatoriya poliklinika muassasalari soni, <i>birlik</i>	246	269
Quvvati, bir smenada qatnovlar soni, <i>ming</i>	14,8	15,2
10000 aholiga ambulator muassasalarining quvvati	155	155
Ambulatoriya poliklinika muassasalariga qatnovlar soni, <i>ming</i>	9360,3	9604,1
Qayd qilingan kasalliklar soni, <i>ming</i>	602,9	616,3

Navoiy viloyatida jinsi bo'yicha aholining kasalliklarga chalinishi (2018 yil)



2018 yilda birinchi marta tashxisi aniqlanib ro'yxatga olingan kasalliklar soni 616,9 mingta bo'lib, ulardan 56 foizi ayollarda va 44 foizi erkaklarda aniqlangan.


Birinchi marta ro'yxatga olingan kasalliklarda erkak va ayollar ulushi, %



Navoiy viloyatida xududlar bo'yicha aholining kasalliklarga chalinishi (2018 yil)

Rasmda hududlar va bemorlar jinsi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Birinchi marta qo'yilgan tashxis bilan qayd qilingan kasalliklar har 100 ming aholi soniga nisbatan hisoblanganda, deyarli barcha hududlarda ayollar ulushining yuqoriligi kuzatiladi.


**Birinchi marta qo'yilgan tashxis bilan qayd qilingan kasalliklar
(mos yoshdagi 100 ming aholiga nisbatan)**




Navoiy viloyatida yosh guruhlari bo'yicha birinchi marta ro'yxatga olingan kasalliklar (2018 yil)

2018 yilda birinchi marta qo'yilgan tashxis bilan qayd qilingan kasalliklar bemorlarning yosh guruhlari bo'yicha tahlil qilinganda, asosiy qismi, ya'ni 64 foizi 18 va undan katta yoshdagilar hissasiga to'g'ri keldi. Har 100 ming aholiga nisbatan hisoblansa, o'rtacha 40550 ta kasallik qayd qilingan.

Birinchi marta qo'yilgan tashxis bilan qayd qilingan kasalliklar sonida yosh guruhlari ulushi



Birinchi marta qo'yilgan tashxis bilan qayd qilingan kasalliklar, mos yosh guruhi bo'yicha 100000 aholiga, kishi






2017 yilda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sohasida 2,7 ming shifokor faoliyat yuritgan bo'lsa, 2018 yilda ularning soni 2,8 ming kishini (4 foizga oshdi) tashkil etdi. O'rta tibbiyot xodimlari soni esa 2017 yilga (13,2 dan 13,5 ming kishigacha) nisbatan 2 foizga ko'paydi.

Aholining tibbiyot xodimlari bilan ta'minlanganligi (2017-2018 yillar)

	Jami shifokorlar soni, ming kishi	10000 aholiga to'g'ri keladigan shifokorlar soni	Bitta shifokorga to'g'ri keladigan aholi soni	Jami o'rta tibbiyot xodimlari soni, ming kishi	10000 aholiga to'g'ri keladigan o'rta tibbiyot xodimlari soni	Bitta o'rta tibbiyot xodimiga to'g'ri keladigan aholi soni
2017 y.	2,7	29	349	13,2	138	72
2018 y.	2,7	29	343	13,5	138	72

Shifokorlarning malaka toifalari bo'yicha taqsimlanishi, foizda



Tibbiyot xodimlari soni (2018 yil), kishi

	Shifokorlar	O'ta tibbiyot xodimlari
Navoiy viloyati	2835	13 488
<i>shaharlar:</i>		
Navoiy	1272	4216
Zarafshon	271	1064
<i>tumanlar:</i>		
Konimex	51	343
Karmana	280	1329
Qiziltepa	242	1943
Navbahor	154	1093
Nurota	124	916
Tomdi	15	183
Uchquduq	153	626
Xatirchi	273	1775

*Navoiy viloyati statistika boshqarmasi
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi*